XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON VA USMONIYLAR O‘RTASIDAGI ALOQALAR

Mo‘minova Manzura Ashur qizi
TATU Qarshi filiali erkin tadqiqotchisi
mominova23.01.1993@gmail.com
Tel:90-964-73-26

Annotatsiya: Ushbu tezisda birinchi jahon urushi davrida Turkiston o‘lkasining Usmoniylar davlati (bugungi O‘zbekistonning Turkiya davlati bilan) bilan o‘rnatgan aloqalari tarixiy manbalar va tarixiy asarlarga tayangan holatda yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar. Birinchi jahon urushi, asirga olingan turk askarlari, asirlar lageri, moddiy va ma’naviy yordam, elchilik aloqalari.
Аннотация:В этом тезисе, опираясь на исторические источники и исторические произведения, освещены отношения Туркестанского края с Османским государством (современный Узбекистан с Турцией) в период Первой мировой войны.
Ключевые слова. Первая мировая война, пленные турецкие солдаты, лагерь пленных, материальная и моральная помощь, посольские связи.
Annotation: This thesis, based on historical sources and historical works, illuminates the relations established by the Turkestan region with the Ottoman Empire (present-day Uzbekistan with the Turkish state) during the First World War.
Key words. World War I, captured Turkish soldiers, prisoner camp, material and moral assistance, and diplomatic relations.

Kirish. Turkiy davlatlar xalqlarining hayoti bir-biri bilan doimo uzviy bog‘liqlikda rivojlanib borgan. Ular o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar doimo mavjud bo‘lganligini tarixiy manbalar ham isbotlaydi. O‘zbekiston va Turkiya davlatining vakillari yillar mobaynida ushbu ikki xalq taqdiri, turkiy xalqlar hayoti bir-biri bilan uzviy bog‘langanligi va boy tarixga ega ekanliklari nuqtayi nazaridan bir–birlarining tarixlariga qiziqib, ikki davlat orasida ta’lim, madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish maqsadida mutaxassis olimlar almashinib o‘z tadqiqotlarini amalga oshirganlar. Bundan tashqari birinchi jahon urushi davrida Turkiston o’lkasi va aholisi Turkiyaga ma’naviy dastak bo’lishga intilishlari bilan bir qatorda Turkiston musulmonlari Turkiya aholisini moddiy jihatdan qo’llab quvvatlashga ham harakat qilganlar. Ushbu fikrlarimizni quyidagi ba’zi tarixiy ma’lumotlar va manbalar bilan yanada aniqroq aks ettirishimiz mumkin.

1917-1923-yillarda Rossiyaning katta shaharlarida turk askarlarini uchratish mumkin edi. 1917-yil may oyida Butun Rossiya Musulmonlarining Birinchi Kongresi bo‘lib o‘tadi. 1912-yilning iyun oyida Nijniy Novgorod musulmonlari Butun Rossiya musulmonlari Ijroiya tashkilotiga asirga tushgan turk askarlarining yomon ahvoli haqida maktub yozadi. Maktubda Rossiya tomonidan Kavkaz frontida asir olingan turk askarlari juda qiyin sharoitda asirlar lagerida saqlanayotgani haqida yozilgan edi. Nijniy Novgorod asirlar lagerida 500 ga yaqin asir bo‘lgan. Bu yerdagi asirlarning 200 ga yaqini kasalliklar va og’ir shart-sharoit natijasida vafot etgan. Nijniy Novgoroddagi musulmonlar o‘zlari qiyin sharoitda yashasalar ham turk asirlariga yordam berishga harakat qilishadi. Asirlar orasida 90 yoshli bir keksa askar ham bor ekanligi manbalarda uchraydi [1;181-187]. Nijniy Novgorod Musulmonlar tashkiloti Usmoniylar hukumati bilan ko‘rishib bu askarlarni almashtirish xususida muzokara olib borishadi. Bu askarlar bu hududdagi sovuq havo iqlimiga moslasha olmasligi, ularni havosi issiqroq shaharlarga joylashtirish kerakligi taklifi beriladi. Bu kabi takliflarni amalga oshishi turk askarlari uchun juda muhim edi. Bu harakatlar insoniylik jihatidan ham muhim ahamiyat kasb etardi. Birinchi jahon urushida Rossiya tomonidan asir olingan turk askarlari Turkiston ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotidagi faoliyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Turk askarlari Turkistonliklar tomonidan iliq kutib

olinadi va bu tabiiy bir munosabat sifatida qabul qilinadi. Markaziy kuchlar urushda mag‘lub bo‘lganliklarini qabul qildilar va ittifoqchi kuchlardan sulh so‘rashdi. Urushda mag‘lub bo‘lgan hukumat va Sadr Tal’at Posho iste’foga chiqdi va ittifoqchi siyosiy liderlar Turkiyani tark etishdi. 1920-yilning 16-martda inglizlar Istanbulni ishg‘ol etdi. Usmoniylar poytaxti ittifoqchilarning harbiy boshqaruvi qo‘liga o‘tdi. Inglizlar “Mejlesi Mebusan” deb nomlangan turk Milliy Majlisiga bostirib kirdi. Bir qancha millat vakillari Anqarada yig‘ildilar. 1920-yil 23-aprelda Anqarada “ Turkiya Millat Majlisi” nomli majlisda yig‘ilib Mustafo Kamol Poshoni prezident etib tayinlaydilar. 1920-yilning may oyida Samarqandda bosilib chiqqan “ Mehnatkashlar ovozi” gazetasida Angliya tomonidan Istanbulni egallanishi Turkiston xalqlarining noroziligiga sabab bo‘lgani va hukumatning turk qardoshlariga yordam berishi to‘g‘risida xabar berganligi haqida maqola e’lon qilingan edi. Turkiston Xalq universitetida tashkil etilgan mitingda Turkiyani qo‘llab quvvatlovchi va Istanbulning ishg‘ol etilishiga qarshi fikrlar bildiriladi. Shuningdek mitingda Turkiyaga moddiy yordam uchun pul yig‘ish maqsadida besh kishidan iborat vakillar ma’sul etib tayinlanadi [2;26] 1921-yilning 20-iyunida (ba’zi manbalarda 15-iyunda deb keltiriladi) [3.137]. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar Kengashi va Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Turkiya Tashqi ishlari vazirligiga maktub yoziladi. Maktubda Anadolu hukumati va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi orasidagi elchilik aloqalarining yaxshilanishiga xizmat qiluvchi elchilarni tayinlash haqida kelishuvni imzolash taklif etiladi. Maktubda: “Buxoro xalqi va hukumati jasoratli, millatparvar turk xalqini olqishlaydi va sizlarni Buxoroda ko‘rishdan mamnun bo‘lamiz” deb yozilgan edi. Bu maktubga javob sifatida 1922-yil 4-yanvarda Turkiya Buyuk Millat Majlisi tomonidan Buxoroga Fahri Posho vakil etib tayinlanadi[4;3]. Bunga javob sifatida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati tomonidan Turkiyaga vakillar yuborilgani haqida “Buxoro xabarlari” gazetasining 1922-yilgi 4-apreldagi sonida xabar bosib chiqiladi. Buxoro vakillari Turkiya Buyuk Millat Majlisi rahbari Mustafo Kamol tomonidan qabul qilinadi. Buxoro vakillari hadya sifatida 2 dona qilich va boshqa sovg‘alar bilan kelishgan edi. Qilichlardan biri Mustafo Kamolga, ikkinchisi Izmirni qaytarib olgan armiya qo‘mondoni uchun bo‘lgan. Mustafo Kamol sovg‘alar uchun minnatdorchilik bildiradi va mustaqillik kurashida zafarli qo‘shinimiz bu qilichlar bilan yana zafar qozonadi deb aytgan edi” [2;27] Turkiyaning mustaqillik uchun kurashi davrida Rossiya hukumati O‘rta Osiyo mamlakatlari va Turkiya orasidagi aloqalarga to‘sqinlik qilmadi. Chunki sovetlar bu davrda Turkiya bilan ijobiy aloqalar o‘rnatgan edi. Rossiya Sovet Sotsialistik Respublikasidan ilk yordam partiyasi 1920-yil 22-sentabrda Trabzonga yetib boradi [5;386]. 1921-yil 16-martda Moskva shartnomasi imzolandi va Turkiyaning elchisi sifatida Ali Fuad Posho, Rossiya Sovet federativ sotsialistik Respublikasi elchisi etib Nasarenu tayinlanadi. 1921-yil 26-sentyabrda Rossiya vositachiligida “Turkiya va Kavkaz respublikalari orasida do‘stlik haqida kelishuv” imzolanadi. 1922-yil 4-yanvarda Ukraina bilan shartnoma imzolanadi. M. Frunze Ukrainaning Turkiyadagi elchisi etib tayinlanadi. Bu kelishuv imzolanganidan so’ng Turkiya Ukrainadan 100 ming miltiq, 100 ming quti patron, 3500 miltiq, 500 ming o‘q so‘raydi [6;73]. Turkiston xalqlari tomonidan yig‘ilgan oltinlar Moskvada rubl qilib bosib chiqiladi va 1920-yil sentabridan 1922-yilga qadar 11 million rubl yuboriladi (Tohir Qahhor buni 11mln emas 100 mln bo‘lganini aytib o‘tadi. Uning keltirishicha 89mln rubl yuborilmasdan Moskvada qolgan) [7;112]. Turkistondan yig‘ilgan mablag‘lar Moskva vositachiligida Turkiyaga olib borilgan. Sovetlar davri tarixchilari “ Rossiya hukumati Turkiyaga 10 mln rubl miqdorida oltin va to’p, patron kabi qurollar yuborgani haqida yozilgan ma’lumotlar mavjud [8;94].

1922-yil 9-sentabrda Izmir Turkiya askarlari tomonidan ozod etiladi. 1922-yil 6-oktabrda Turkiston Muxtoriyati, 1922-yil 12-oktyabrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi,
16-oktyabrda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tomonidan turk armiyasining zafarlarini qutlash uchun maktablar yuboradi va mitinglar tashkil etadi. 1922-yil 11-oktyabrda Mudanya sulh

shartnomasi urushga chek qo‘ydi va bir necha oy davom etgan muzokaralardan so‘ng Turkiya bilan urushayotgan davlatlar o‘rtasida 1923-yil 24-iyulda Lozanna shartnomasi imzolandi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi Nozirlar Kengashi raisi Otaxo‘jayev tomonidan Turkiya Buyuk Millat Majlisi Rahbari Mustafo Kamolga yozgan tabrik maktubida: “ Buxoro Hukumatining 5mln xalqi nomidan ikki yildirki davom etayotgan milliy mustaqillik uchun kurashdagi g‘alabasi bilan turk armiyasini chin yurakdan qutlaymiz. 1922-yil 12-oktyabrda Buxoro xalqi va hukumati tomonidan turk armiyasi zafarlarini qutlash uchun miting tashkil etildi. Minorayi Kalon masjidida mustaqillik kurashida vafot etgan insonlar xotirasiga duo qilinadi. Buxoro xalqi urushning tezroq yakunlanishini juda xohlagandi va turk armiyasini zafar qozonishiga ishongandi” deyilgan edi[4;248]. Bu telegramma Turkiya Buyuk Millat Majlisi vakillari tomonidan o‘qiladi va juda iliq qabul qilinadi. Doktor Adnan tomonidan javob maktubi tayyorlanadi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumati va xalqiga ma’naviy dastak uchun tashakkur bildiriladi. “Buxoro xabarlari” gazetasida bu mavzuda xabar bosilib chiqilgan edi. Turklarning milliy mustaqillik uchun kurashi yakunlanganidan Turkiston xalqlari juda xursand bo‘lgandi.

Xulosa. Birinchi jahon urushida Turkiston xalqi Turkiyaga moddiy va ma’naviy dastak berdi, uni qo‘llab-quvvatladi. Turkiston ziyolilarining bu kabi keng ko‘lamli, qizg‘in faoliyatlari ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi va bu kabi faoliyatlar xalq tomonidan ham ijobiy qarshilandi, ular ham bu kabi ishlarni amalga oshirishda ko‘makchi bo‘ldilar. Birinchi jahon urushida Rossiya tomonidan asir olingan turk askarlari ham Turkiston xalqi tomonidan juda iliq qarshilandi. Turkiya milliy mustaqillik uchun kurashi davrida ham Turkiston, Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi hukumatlari va xalqi tomonidan moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab quvvatlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Faizov, C., (2003) “Pismo Musulman Nicniy Novgorodo ispolkomu bserossiyskogo musulmanskogo soveta o bedstvennom polocenii tureskih plennih 2581 v Nicegorodskom lagere”. Ot Istanbula do Moskvi. Sbornik statey v cest 100-letiya professora A..F.Millera. Moskva: Muravey. s.181-187.
2. Babahodcayev, A. H., (1961) “Srednaya Aziya i Tursiya v Godi Osvoboditelnoy borbi tureskogo naroda protiv intervensii Antanti”, Obseestvenniye Nauki v Uzbekistane, Sayı: 12. s.20-29
3. Boltabayev, H., (1991), “Talabni kondirmagan inkilob”, Sark Yulduzi, Sayı: 1. s.131-139
4. Özbekistan Cumhuriyeti Milli Devlet Arsivi.48-fond, 81-is, 248-sayfa: 124-is, 3-sayfa
5. Aydinel Sıtkı, (1998), “Atatürkçülükte ulusal hedefler”. Prof.Dr.Fahir Armaoğlu özel sayısı. Ankara: Atatürk Araştırma Merkezi Dergisi. Cilt XIV, Sayi 41, s.385-386
6. Kuznesova S., (1961), Ustonovleniya sovetsko-tureskiye otnoseniye. Moskva: s.72-73.
7. Kahhar Tahir, (1994), Hür Türkistan icin. Taskent: Colpan: 112 s
8. Shamsuddinov, A,M., (1961), Tureskaya respublika. Moskva: IVL: 94 s.